

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 15 684,4 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 15 231,0 mlrd. so‘mni (101,2 %), o‘rmon xo‘jaligi – 381,3 mlrd. so‘mni (104,3 %), baliqchilik xo‘jaligi - 72,1 mlrd. so‘mni (110,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 10,2 % ni tashkil etdi.



15 684,4

Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd so‘m

01



15 231,0

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



381,3

O‘rmon xo‘jaligi


03




72,1

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʻati




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da



2023- yilning yanvar-iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 2,4 foizni o‘rmon xo‘jaligiga, 0,5 foizni baliqchilik xo‘jaligiga va 97,1 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka (1 687,6 mlrd. so‘m), Jalaquduq tumani (1 531,5 mlrd. so‘m) va Qo‘rg‘ontepa (1 278,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (81,2 mlrd. so‘m) va Andijon shahri (442,5 mlrd. so‘m)ni keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (101,3 %) yuqori o‘rish sur‘atlari Baliqchi (111,3 %), Marhamat (111,2 %) tumanlarida kuzatildi. Ulug‘nor (106,1 %) hamda Xo‘jaobod tumani esa (89,1 %) aksincha o‘rish sur‘atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 15 099,2 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 8 627,8 mlrd. so'mni (99,8 %), chorvachilik mahsulotlari – 6 471,4 mlrd. so'mni (103,5 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi, % da



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,3 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,3 foizi - fermer xo'jaliklariga, 2,3 foizi - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida (44,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Andijon shaharda (99,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Baliqchi tumanida (6,7 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Xonobod shahrida (1,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Ulug'nor tumanida (51,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xonobod shahrida (0,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 8 627,8 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 99,8 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,1 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



Oʻsish surʼati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Hududlar boʻyicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, ming t.



Sabzavotlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 579,0 ming tonna sabzavotlar (2022- yilning yanvar-iyunga nisbatan 100,1 % ga kam) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t.



Kartoshka




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da





2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 187,0 ming tonna kartoshka (2022- yilning yanvar-iyungga nisbatan 100,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 74,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, ming t.



Poliz



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 24,3 ming tonna poliz (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 108,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 77,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Hududlar bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, ming t.



Meva va rezavorlar





Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 246,8 ming tonna meva va rezavorlar (2022- yilning yanvar-iyunga nisbatan 100,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 57,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, ming t.






Uzum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1,7 ming tonna uzum (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 112,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 40,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik




2023- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6 471,4 mlrd soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 81,1 ming tonna goʻsht (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 103,1 % ga koʻp), 360,2 ming tonna sut (103,3 % ga koʻp), 300,3 mln. dona tuxum (100,1 % ga koʻp) va 4 448,5 tonna baliqchilik (109,5 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 81,1 ming tonna go'sht (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 103,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming t



Sut



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 360,2 ming tonna sut (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 103,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna



Tuxum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 300,3 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 100,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 78,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


Hududlar bo'yicha olingan tuxum hajmi, mln dona



Baliq



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 448,5 tonna (2022- yilning yanvar-iyungacha nisbatan 109,5 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchilik xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 50,7 foizi fermer xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Hududlar bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni va o'sish sur'ati




2023- yining 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,4 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 23,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 75,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 14,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 58,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 27,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2023- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 113,1 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 6,1 ming taga (9,4 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.


Hududlar bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 380,8 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,6 ming taga (1,2 %) ko'paydi.


Sigirlar



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


Hududlar bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 525,2 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 14,3 ming taga (0,9 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 93,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.

Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 7 302 taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 198 taga (2,8 %) ko'paydi.



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 75,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni




2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 9 816,8 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 708,4 ming taga (7,8 %) ko'paydi.

Parrandalar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 58,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari – oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorida jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo'jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo'qotilganini qo'shgan holda, qo'y, echki, tualardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o'z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo'shiladi.